

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA**  
**MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

**SHARQ FILOLOGIYASI FAKULTETI**  
**JANUBIY OSIYO TILLARI KAFEDRASI**

# **KURS ISHI**

**Mavzu: O`zbek va hindiy tillarida bog`lovchi so`z turkumi**

**Bajardi: 3-kurs talabasi Burxonova N.N.**

**Ilmiy rahbar: katta.o`qit. Sodiqova M.Q.**

**Toshkent – 2015**

## **Reja:**

### **I. Kirish:**

Bog'lovchi va bog'lovchi haqida o'zbek olimlarining fikrlari;

### **II. Asosiy qism:**

1. O'zbek tilida bog'lovchilar;
2. Hindiy tilida bog'lovchlar;
3. O'zbek va hindiy tilidagi bog'lovchilarning o'xshash va farqli tomonlari.

### **III. Xulosa.**

### **IV. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

## KIRISH

Bog'lovchi yordamchi so'z turkumi hisoblanadi, lekin shunga qaramay uning gapdagi va nutqdagi o'rnini juda katta. Agar ulardan maqsadga muvofiq tarzda va o'z o'rnida qo'llanilmasa, mantiqiy xatolikka yo'l qo'yiladi. Shu jumladan ulardan ko'p foydalanish ham nutqni buzilishiga olib keladi. Bu mavzuni tanlashdan maqsad o'zbek va hindiy tilidagi bog'lovchilarni bir-biridan farqlarini aniqlash, ularning gap va nutqdagi ahamiyatini o'rganish hamda kelajakda bog'lovchilarni amaliyotda to'g'ri qo'llay bilishdan iborat.

Bog'lovchilar gapdagi uyushgan bo'laklarni va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga bog'laydigan yordamchi so'zlardir. Bog'lovchilar grammatik jihatdan o'zgarmaydi va lug'aviy ma'noga ham ega emas.

O'zbek olimlaridan Shavkat Rahmatullayev bog'lovchiga quyidagicha ta'rif beradi: "Bog'lovchi leksema shakllar orasidagi, gap shakllar orasidagi sintaktik munosabatni ta'minlaydi va ma'lum bir grammatik ma'noni ifodalaydi"<sup>1</sup>.

Yana bir o'zbek tilshunosi Azim Hojiyev esa quyidagicha ta'rif beradi: "Bog'lovchi qo'shma gap tarkibidagi gaplarni, shuningdek, uyishiq bo'laklar qismlarini bir-biriga bog'lash va shu yo'l bilan ular orasidagi turli munosabatlarni ifodalash uchun xizmat qiluvchi

---

■<sup>1</sup> "Hozirgi o'zbek adabiy tili", Sh. Rahmatullayev, T.-2006.

yordamchi so'z. Bog'lovchilar ma'no va vazifasiga ko'ra ikki asosiy turga bo'linadi: 1) teng bog'lovchilar; 2) Ergashtiruvchi bog'lovchilar"<sup>2</sup>.

F. Abdurahmonov va S. Mamajonovlar bog'lovchilarni teng va tobe bog'lovchilar deb, ikki guruhga ajratadi. Teng bog'lovchilarni esa o'z navbatida yana to'rt turga: biriktiruv, zidlov, ayiruv va inkor bog'lovchilariga bo'lishadi.

Choriyev, N. Safarova, Ismatovalar ham bog'lovchilarni vazifasiga ko'ra 2 turga ajratishadi: teng va ergashtiruvchi bog'lovchilarga. Teng bog'lovchilarni esa 3 turga: biriktiruv, zidlov, ayiruv bog'lovchilarga guruhlashadi<sup>3</sup>.

Rasulov, A. Mirazizovlar ham bog'lovchilarga yordamchi so'z turkumi deb ta'rif berishadi va ularni ikki turga ajratishadi<sup>4</sup>. Teng bog'lovchilar grammatik jihatdan teng bo'lgan qismlarni bog'laydi va biriktiruv, zidlov, ayiruv kabi turlarga bo'linadi deb ta'riflashadi.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, barcha olimlar bog'lovchilarni vazifasiga ko'ra ikki turga ajratishgan. Teng va ergashtiruvchi bog'lovchilar. Faqat ba'zi olimlar ergashtiruvchi bog'lovchilarni tobe bog'lovchilar deb atagan. Teng bog'lovchilarni

---

<sup>2</sup> "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati", A. Hojiyev. T.-2002.

<sup>3</sup> "O'zbek tili" Choriyev, N. Safarova, Ismatova. T.-2008.

<sup>4</sup> "O'zbek tili", Rasulov, A. Mirazizov. T.-2005

ayrim olimlar 3 guruhga ajratgan bo'lsa, boshqalari 4 turga guruhlagan. Bog'lovchi haqida berilgan fikrlarning deyarli barchasida bir xil ma'no anglashilgan.

## **Asosiy qism**

O'zbek tilida bog'lovchilar sintaktik aloqaning qanday turini ifodalashiga ko'ra hamda qo'llanilishiga ko'ra ikki turga bo'linadi: Teng bog'lovchilar va ergash bog'lovchilar.

Teng bog'lovchilar sodda gap shakllar tarkibidagi( shuningdek, qo'shma gap shakl tarkibidagi) qismlarni o'zaro teng munosabatda bog'laydi va quyidagi ma'no turlarga ajratiladi:

- 1) biriktiruv;
- 2) zidlov;
- 3) ayiruv;
- 4) inkor;

1. Biriktiruv bog'lovchilar “va”, “hamda” so'zlaridan iborat bo'lib, ular gapning uyushiq bo'laklari yoki sodda gaplarni o'zaro bog'laydi. Nutqda eng ko'p “va” bog'lovchisi ishlatilib, uyushiq qator bilan ifodalangan sintaktik bo'lak a'zolarini bog'laydi.

- a) sifatlovchida: o'tkinchi va nohalol bir narsa (Odil Yoqubov);
- b) to'ldiruvchida: ...o'zida g'ayrat va qanoat seza boshladi.(Asqad Muxtor);
- c) hollovchida: U boshini shunday tez va kutilmagan vaqtda burdiki,...(Abdulla Qahhor)

d) egada: Komilova aka-uka Ziyodulla bilan Ibodulla otlarni...yo'lakka boshladilar ( Hamid G'ulom)

e) kesimda: yo'lovchi qayiqqa sakrab chiqdi va ...eshkaklarni esha boshladi.( Hamid G'ulom);

“Va” bog'lovchisi qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga bog'laganda:

a) o'zi bog'lagan sodda gaplarda ifoda qilingan ish-harakat, voqea va hodisalarning bir vaqtda bo'lganini ko'rsatadi: Soy g'uvillab oqar va uning suvi qirg'oqda o'sgan o'tlarni silkitar edi.

b) ish-harakatni ketma-ket bo'lganini ko'rsatadi: Bahor keldi va daraxtlar gullay boshladi.

2. Zidlov bog'lovchilar mazmunan bir-biriga zid bo'lgan gap va gap bo'laklarini o'zaro teng bog'laydi. Zidlov bog'lovchilari: ammo, lekin, biroq.

Bu bog'lovchilar sinonim bo'lib, uyushiq qator bilan ifodalangan kesimning a'zolarini o'zaro zidlab bog'laydi: bu a'zolar anglatayotgan harakat holatdan birigina amalga oshuvini bildiradi: Sherzod gapni nimadan boshlashni o'ylar, ammo jo'yaliroq so'z topolmay qiynalar edi.(O'tkir Hoshimov); G'o'za sug'orishni juda yaxshi biladilar, lekin amal qilmaydilar. (Oybek); U...qurilish tashkilotlari boshliqlari ko'zlariga qadalib qaragisi kelar, biroq hozir payti emasligini sezardi. (Odil Yoqubov)

Zidlov bog'lovchilari qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni orasida bog'lab kelganda, ularni zidlash asosida teng bog'laydi: Tiniq osmonda yulduzlar miltirar, biroq oy ko'rinmas oy ko'rinmas edi.

3. Ayiruv bog'lovchilari uyushiq bo'laklarni yoki gap bo'laklarini bir-biridan ajratib, ta'kidlab bog'laydi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ko'p qo'llaniladigan ayiruv bog'lovchilari: yo, yoki, yoxud, yoinki, yo..., yo..., goh..., goh..., dam..., dam..., bir..., bir..., ba'zan..., ba'zan..., xoh..., xoh... .

Bulardan yo, yoki, yoxud, yoinki bog'lovchilari uyushgan bo'laklarning birini ikkinchisidan biror voqea, hodisa yoki ish-harakatni boshqasidan ayirib ko'rsatish uchun ishlatiladi: U ham ko'p o'tmay yo injener, yoki o'qituvchi bo'lib ishlashi mumkin.

Goh..., goh..., dam..., dam..., bir..., bir..., ba'zan..., ba'zan... bog'lovchilari esa uyushgan bo'laklarning yoki qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning oldida takrorlanib kelib, ularni ayiruv yo'li bilan bog'laydi: Dam qor yog'adi, dam yomg'ir tomchilaydi.

4. Inkor bog'lovchisi "na" so'zidan iborat bo'lib, uyushiq bo'laklarni yoki qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni inkor ma'nosi orqali bog'lab, takrorlangan holda qo'llaniladi: Unda na insof bor, na diyonat.

II. Ergashtiruvchi bog'chilar ergashgan qo'shma gap tarkibidagi qismlarni ergashtirish, tobelash yo'li bilan bog'laydi. Ergashtiruvchi bog'lovchilar quyidagi turlarga bo'linadi:



1. Aniqlov bog'lovchilar (ya'ni, -ki, -kim) ergash gaplarni bosh gapga bog'lash uchun ishlatilib, bosh gapda ifodalangan fikrni aniqlab, izohlab ko'rsatadi: Deydilarkim, oyda ham dog' bor.

2. Sabab bog'lovchilari "chunki", "shuning uchun" ergash gaplarni bosh gapga bog'lab, sabab, natija ma'nolarini ifodalaydi: Biz o'z vatanimizni sevamiz, shuning uchun uni asrab, avaylashimiz zarur.

3. Shart bog'lovchilari "agar", "gar", "agarda", "basharti", "mabodo", "garchi" shart va tosiqsiz ergash gaplarning bosh gapga bo'lgan munosabatidagi shartni, shu bilan birga, tosiqsizlik ma'nolarini anglatadi: Gar shu eshitganim bo'lmasa ro'yo, sen ona emassan, dorsan tabiat. (A. O)

4. Chog'ishtiruv bog'lovchilari "go'yo", "go'yoki" bosh gapda ifodalangan fikrni ergash gapdagi fikr bilan qiyoslab ko'rsatadi: Oppoqqina nozik yuzi oftobda shunday tiniq ko'rindiki, go'yo u nurdan yaratilganday.

Hindiy tilida ham bog'lovchilar yordamchi so'z turkumi hisoblanadi. Ular gap bo'laklarini va gaplarni bir-biriga bog'laydi. Ular orasidagi ma'lum bir semantik-sintaktik aloqani ko'rsatadi.

समाधि काले और लाल पत्थर से बनायी गयी है और बहुत सुन्दर दिखाई देती है।

Maqbara qora va qizil toshdan qurilgan va juda chiroyli ko`rinmoqda.

मैं ने दो खत तुम्हारे पास भेजे भी है परंतू तुम ने दोनों का उत्तर नहीं दिया ।

Men senga ikkita xat yuborgan edim lekin sen ularning ikkoviga ham javob yozmading.

Birinchi misolda bog`lovchi **और** gapning uyushiq bo`laklarini bog`lab kelgan bo`lsa, ikkinchi gapda **परंतू** (biroq) bog`lovchisi murakkab qo`shma gapdagi ikki sodda gapni bir-biriga zidlab bog`lagan.

Hindiy tilida bog`lovchi vazifasini bajaradigan so`zlar ham mavjud. Bog`lovchi vazifasini bajaradigan so`zlar bular bog`lovchi vazifasida keladigan olmoshlar va olmoshdan yasalgan ravishlar. Bog`lovchi o`rnida keladigan so`zlar bog`lovchilardan farqli o`laroq ular qo`shma gapdagi ergash gapning bo`lagi bo`lib keladi. ”जो कहूँगा वह करोगे”– “Nima aytsam, shuni qilasan: (“जो” qiyosiy olmosh – vositasiz to`ldiruvchi).

मैं खड़ा था उस छोटे फुहारे के पास जहाँ एक लड़का चुपचाप शरबत पीनेवालों को देख रहा था ।

Men bir bola sharbat ichayotganlarga jimgina qarab turgan o'sha kichkina favvora oldida turardim (“जहाँ” nisbiy ravish – o'rin holi).

Hindiy tilida bog'lovchilar sof va yasama turlarga bo'linadi. Sof bog'lovchilarga “पर”, “कि”, “या” va boshqalar kiradi. Yasama bog'lovchilar fe'llar, ravishlar, yuklamalar, so'z birikmalaridan kelib chiqqan so'zlardir. Masalan, मानो – xuddi, dek; मानना – deb hisoblamoq, tan olmoq; चाहे – ga qaramay ; चाहना – xohlamoq; क्योंकि – chunki (क्यों – nimaga + कि – ki); चुनकि – chunki (चुन – nimaga + कि – ki); नकि – yo'qsa (न – yo'q + कि – sa); इस लिये कि – shuning uchun (यह – bu + लिये – uchun {लेना dan kelib chiqqan (olmoq)} + कि “ki”) va boshqalar.

Gapdagi vazifasiga ko'ra bog'lovchilar teng va ergashtiruvchi bog'lovchilarga bo'linadi. Teng bog'lovchilar alohida so'zlarni (gapdagi uyushiq bo'laklarni) va gaplarni bir-biriga tobe qilmasdan bog'laydi. Teng bog'lovchilar tuzilish jihatidan quyidagi turlarga bo'linadi:

1) Yakka holda ishlatiladigan bog'lovchilar (sodda). Ular uyushiq bo'laklarni va gaplarni bog'lashga xizmat qiladi va bir marotaba ishlatiladi: और, तथा, लेकिन, पर, कि va boshqalar. Masalan,

“जगतप्रकाश पढ़ता जाता था और मुस्करता जाता था।”

“Jagatprakash o'qir edi va jilmayar edi”.

“क्रिष्ण तथा गोपाल स्कूल में पढ़ते हैं।”

“Krishna va Gopal maktabda o`qiydi”.

मौसम कफी सुहावना था सर्दी समप्त हो गयी थी, लेकिन गर्मी अभी आरंभ नहीं हुई थी ।

“Havo anchagina yoqimli edi, sovuq kunlar tugagan, lekin yoz hali boshlanmagan edi”.

यहाँ काम करते करते मार जाओ पर किसी का मुहँ ही सीधा नहीं होता ।

“Bu yerda ishlab-ishlab o`lib ketsang ham hech kim minnatdor bo`lmaydi”.

चांदी के होंगे की सोने के, दादी जी?

“Buvi bular kumushdan bo`ladimi yoki oltindanmi?”

2) Takror bog`lovchilar. Ular ikki (yoki undan ortiq) uyushiq bo`laklar va qo`shma gaplarning qismlari oldidan keladi. “न....न”, “चाहे....चाहे”, “या.....या”, “क्या....क्या”. Masalan, पहले भारत में न मोटर बनानेवाला उद्योग था या न हवाई जहाज़ बनानेवाला ही। “Avval Hindistonda na avtomobil ishlab chiqarish sanoati va na samalyot ishlab chiqarish sanoati bor edi.

या वह खूद घर जायेगा या घर का कोई आदमी उस से मिलने यहाँ आयेगा ।

“Yoki uning o`zi uyga boradi, yoki uydan kimdir bu yerga uni ko`rgani kelishadi.

3) Qo`shaloq tarkibli yoki ikki bo`lakdan iborat bo`lgan bog`lovchilar. Bunday bog`lovchilar ikki qismdan tashkil topgan bo`lib, ulardan birinchi bo`lagi gapda ularning ikkinchi bo`lagining ishlatilishini taqazo etadi. Ularga quyidagilar kiradi: “ही नहीं....पर (भी), न सिर्फ ....बल्कि (भी)”, “केवल ही नहीं....बल्कि” va boshqalar. Masalan: आपकी माँग की कुछ किताबें हमारे पास ही नहीं, पर मुम्बाई में किसी भी पुस्तक विक्रेता के पास भी नहीं थी ।

4) “Sizga kerakli bo`lgan ayrim kitoblar nafaqat bizda, balki Bombeyning hech bir do`konida yo`q edi.

इस तरह वे न सिर्फ़ होटल में बल्कि हिंदुस्तानियों के घरों में भी हिंदुस्तानी खाना खाते हैं।

“Shunday qilib, ular nafaqat mehmonxonada balki hindistonliklarning uylarida ham hindiycha ovqat yeyishadi.”

5) Murakkab bog`lovchilar ikki so`zdan iborat bo`ladi va birga keladi: नहीं तो, न (ना) कि, फिर भी. Masalan:

जल्दी करो नहीं तो देर हो जायेगी ।

Shoshil bo`lmasa, kech qolasan.

हम लोग यहाँ अध्ययन करने आये हैं, न कि व्यर्थ में समय खराब करने के लिये।

“Biz bu yerga vaqtni bekor sarflagani emas, bilim olgani keldik.

Anglatgan ma'nosiga ko'ra teng bog'lovchilar hindiy tilida quyidagi turlarga bo'linadi: biriktiruv, zidlov, solishtiruv, ayiruv, natija bog'lovchilari ya'ni oqibat sababni ifodalovchi bog'lovchilar.

1. Biriktiruv bog'lovchilarga quyidagilar kiradi: और, तथा, व, न...न , नहीं...न. Biriktiruv bog'lovchilari sanash munosabatini anglatadi. व bilan एवं odatda gapning bir turdagi qismlarini bog'lash uchun ishlatiladi. Qolgan bog'lovchilar esa sodda gap bo'laklarini, shuningdek, murakkab qo'shma gapning qismlarini bog'lab keladi. न...न, नहीं...न bog'lovchilari ishlatilgan gap inkor ma'noda qo'llaniladi. Masalan:

में भी कतार में खड़ा रहा और कुछ देर के बाद टिकट लिया।

”Men ham navbatda turdim va bir necha daqiqadan so'ng chipta oldim.”

2. Zidlov bog'lovchilari nomutanosiblik, cheklash, farq, yon berish, oqibat va boshqa ma'nolarni anglatadi. Zidlov bog'lovchilarga quyidagilar kiradi: और, लेकिन, मगर, पर, परंतु, किंतु, अपितु, न कि, वरण,

नहीं...तो, अन्यातः, फिर, फिर भी. और, अपितु, फिर, फिर भी odatda murakkab qo'shma gapning bo'laklarini bog'lab kelsa, qolgan zidlov bog'lovchilari esa sodda gap tarkibidagi bo'laklar bilan bir qatorda murakkab qo'shma gapning qismlarini ham bog'lash uchun xizmat qiladi.

3. Solishtiruv bog'lovchilari. Bu bog'lovchilar bog'lanayotgan uyushiq bo'laklardan birini yoki murakkab qo'shma gapning ikkinchi qismini ko'proq ahamiyatliroq qilib ko'rsatadi. Ularga quyidagilar kiradi: “न सिर्फ...बल्कि”, “न केवल...वरण (भी)”, “केवल ही नहीं...बल्कि”, “ही नहीं...बल्कि(भी)”, “ही नहीं...पर”, “ही नहीं...वरण”

4. Natija bog'lovchilari ya'ni sabab-oqibat munosabatini anglatadi. Ularga quyidagilar kiradi: “इस लिये”, “अतह”, “अतेवा”, “सो”

Ergashtiruvchi bog'lovchilarning asosiy vazifasi ergashgan qo'shma gap qismlarini bog'lashdan iborat. Ergashtiruvchi bog'lovchilar ham tuzilishiga ko'ra yakka yoki sodda, juft yoki murakkab (tuzilgan) bo'linadi.

1. Yakka bog'lovchilar doim ergashgan qo'shma gapning ergash gap tarkibida keladi. Ularga quyidagilar kiradi: कि, क्यों कि, ताकि, जब, मानो, गोया(कि), यदि, अगर, यद्यपि, चाहे, ज्यों कि, जैसे कि.

2. Juft bog'lovchilar. Bunday bog'lovchilarning bir qismi murakkab ergash gapning ergash gap qismida, ikkinchisi bosh gap tarkibida keladi: “जब...तो (तब)”, “अगर(यदि)...”, “कहीं...तो”, “यद्यपि...तथापि (तोभी)”, “फिर.... भी”, “लेकिन”), “जहाँ...वहाँ”.

3. Murakkab bog'lovchilar yoki bog'lovchili birikma. Ular ikki yoki bir necha so'zdan iborat bo'ladi.(Masalan, olmosh, ort ko'makchi va bog'lovchili birikma; bog'lovchi olmosh va ort ko'makchi; so'z birikmasi, ort ko'makchi va bog'lovchni; olmosh va ort ko'makchini; ravish va bog'lovchini; ravish, ort ko'makchi va bog'lovchilini birikishidan hosil qilinadi.) Bog'lovchili birikmalridan ayrimlari murakkab ergash gapning ikki qismida kelishi mumkin, shu bilan birga birinchi qismida bosh gapda bog'lovchi so'z vazifasida ishlatiladi: इस लिये... कि, कि जिस से, कि जिस में, इस बात कि बावजूद कि, जबकि, जब तक कि, यहाँ तक कि, इस तरह कि.

Anglatgan ma'nosiga ko'ra ergashtiruvchi hindiy tilida bog'lovchilar quyidagilarga bo'linadi: aniqlov, sabab, vaqt, maqsad, o'rin, qiyosiy, shart, natija-oqibat bog'lovchilari.

1.Aniqlov bog'lovchilar murakkab ergash gapning bosh gapiga ega,kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol, ravish ergash gaplarini bog'lab keladi. Ular quyidagilar: कि, जो, मानो,जैसे.

सम्भव है कि तुम अपनी माँ की कुछ सहायता कर सको।

“Balki sen onangga biror yordam bera olarsan.”

2. Sabab bog'lovchilar murakkab ergash gapning bosh gapiga sabab ergash gapni bog'laydi. Ular: क्यों कि, चूंकि, इस लिये कि, इस



लिये....कि, चूंकि... इस लिये. Masalan: बच्चे हमारी गोद से उतर पड़े, क्योंकि वे अलग खेलना चाहते थे। “Bolakaylar qo’limizdan tushib olishdi, chunki ular alohida o’ynamoqchi bo’lishdi.”

3. Maqsad bog’lovchilari bosh gapga maqsad ergashgan gapni bog’lab keladi. Ular quyidagilar: कि, ताकि, (कि) जिस से, (कि) जिस में, इस लिये कि. Masalan: मैं उसी समय घर से बाहर निकली कि ललंसिंह को सावधान कर दूँ। Men o’sha zahoti Lalansinhni ogohlantirish uchun uydan chiqdim.

4. Payt bog’lovchilari bosh gap bilan payt ergash gapni bog’laydi: जब...तब (तो), तब...जब, “जो...तब”(तो), “जब जब...तब तब”, “जब भी...तो”, “जब कभी...तो”, “जब...उस समय”, “जिस समय...तब (तो)”, “जब कि”, जब तक...तब तक”, “जब से... तब से”, ज्यों ही...(त्यों ही),”जैसे ही...(तो, वैसे ही). Masalan: जब आदमी स्वस्थ होता है तब किसी की परवाह नहीं करता। Odam sog’ bo’lsa, hech nimaga e’tibor bermaydi.

5. O’rin bog’lovchilari o’rin ergash gapni bosh gapga bog’laydi. Ularga: जहाँ, जहाँ... वहाँ, जहाँ से... वहाँ (से), जहाँ कहीं....वहाँ, जहाँ भी...वहाँ, जहाँ जहाँ...वहाँ वहाँ, जिधर...उधर kiradi. Masalan: वे भगते हुए ख़ुबानी के पेड़ के निकट चले गये जहाँ नाओ बंधी हुई थी। Ular yugurayotib, qayiq bog’langan o’rik daraxti yoniga borib qolishdi.

6. Chog'ishtiruv (solishtiruv) bog'lovchilari bosh gapni ergash gapga solishtirgan holda bog'lab keladi. Ular quyidagilar: मानो, जैसे (कि), (कि) जैसे, गोया. Masalan: युवक ने उस की ओर गौर से देखा जैसे वह अपने भूले हुए मित्र को पहचानने की चेष्टा कर रहा हो। O'spirin unga shunday diqqat bilan qaradiki, xuddi o'zining unutib yuborgan do'stini tanishga uringandek.

7. Shart bog'lovchilari bosh gapga shart ergash gapni bog'lab keladi. Shart bog'lovchilariga quyidagilar kiradi: अगर...तो, यदि...तो, जो... तो, जब...तो, कहीं...तो. Masalan: अगर गाड़ी ठीक वक़्त पर आती तो यहाँ से कभी की छूट गयी होती। Agar poyezd o'z vaqtida kelganida allaqachon bu yerdan ketgan bo'lardi.

8. Natija bog'lovchilari bosh gapga natija ergash gapni bog'labkeladi. यहाँ तक कि bog'lovchisi bunga misol bo'ladi. Masalan: लड़के माँ के मना करने की परवाह न करते यहाँ तक कि शनैः शनैः माता को भी जोगेशवारी की सहृदयता पर विश्वास आ गया। Bolalar onasining ta'qiqlashiga e'tibor berishmadi va ish shu darajaga yetib bordiki, hatto onasining o'zi ham Jageshvarining mehribonligiga amin bo'ldi.

9. To'siqsizlik bog'lovchilari: यद्यपि, हालांकि, चाहे...(लेकिन, परंतु, पर), यद्यपि...तथापि (तो भी, फिर भी, लेकिन, पर). Masalan: हेमा ने अधिक

कुछ न कहा, यद्यपि कहने लायक उसके पास काफी था। Uning aytadiganlari yetarlicha bo'lishiga qaramasdan, u hech narsa demadi.

## XULOSA

Ergashtiruvchi bog'lovchilarning o'zbek tilida ham hindiy tilida ham vazifasi deyarli bir xil ekan. Hindiy tilida ularning 9 turi mavjud bo'lsa, o'zbek tilida ular 4 ga ajratilgan.

O'zbek tilida ham hindiy tilida ham sintaktik vazifasiga ko'ra ikki turga ya'ni teng va ergashtiruvchi bog'lovchilarga bo'linishini aniqladik. Teng bog'lovchilar o'zbek tilida ma'no jihatidan to'rtga ajratilgan bo'lsa, hindiy tilida esa besh turga ajratilgan. Bulardan biriktiruv, zidlov, ayiruv bog'lovchilari ikkala tilde ham mavjud. O'zbek tilidagi inkor bog'lovchisi hindiy tilidabiriktiruv bog'lovchilar tarkibiga kiritilgan.O'zbek tilida teng bog'lovchining solishtiruvva natija kabi turlari mavjud emas.

Hindiy tilida ham o'zbek tilida ham bog'lovchilar yordamchi soz turkumi hisoblanib, ular gap bo'laklariniva gaplarni bir biriga bog'lab keladi. Bog'lovchilar yordamchi so'z bo'lishiga qaramay, gapda va nutqda juda kata ahamiyatga ega. Bog'lovchilarsiz nutq so'zlab yoki gap tuzib bo'lmaydi. Ulardan tog'ri foydalanish orqali biz nutqiy ravonlikka va tog'rilikka erishishimiz mumkin.

## **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- “Hozirgi o’zbek adabiy tili”, Sh. Rahmatullayev, T.-2006.
- “Tilshunoslik terminlarining izohli lug’ati”, A. Hojiyev. T.-2002.
- “O’zbek tili va adabiyoti” F. Abdurahmonov, S. Mamajonov. T.-2002.
- “O’zbek tili” Choriyev, N. Safarova, Ismatova. T.-2008.
- “O’zbek tili”, Rasulov, A. Mirazizov. T.-2005.
- «Грамматика языка хинди II». З.М.Димшиц. Москва, 1986.
- [www.hind.com](http://www.hind.com)
- [www.hindibhasha.com](http://www.hindibhasha.com)
- [www.hindilanguage.com](http://www.hindilanguage.com)